

UDK: 631.15:631.11

### QISHLOQ XO‘JALIGINING RIVOJLANISHIDA KORXONALAR MONITORINGI AHAMIYATI

**Yusupov Nizomiddin Ro‘zimurod o‘g‘li**

*Kadrlar malakasini oshirish va statistik  
tadqiqotlar instituti, tayanch doktorant  
[samduinformatika@mail.ru](mailto:samduinformatika@mail.ru)*

**ANNOTATSIYA.** Bugungi kunda O‘zbekistonda korxonalar monitoringini olib borish va nazoratni joriy etish mamlakat iqtisodiyotining samarali o‘sishi uchun jiddiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda qishloq xo‘jaligi korxonalarining umumiy tahlili olib borilgan. Ularning faoliyatini rivojlantirishda va barqaror o‘shida korxonalar monitoringining ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar, monitoring, fermer xo‘jaligi, raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar, axborot tizimlari, avtomatlashirilgan boshqaruv, agroinspeksiya, barqaror rivojlanish, agrobiznes.

**АННОТАЦИЯ.** В современных условиях внедрение систем мониторинга и контроля деятельности предприятий в Узбекистане рассматривается как один из ключевых факторов эффективного экономического роста страны. Настоящее исследование посвящено комплексному анализу сельскохозяйственных предприятий, а также рассмотрению роли и значения мониторинга в их развитии и обеспечении устойчивого роста.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, цифровые технологии, мониторинг, фермерское хозяйство, цифровая экономика, инновационные технологии, информационные системы, базы данных, автоматизированное управление, агроинспекция, устойчивое развитие, прогноз урожайности, агробизнес.

**ABSTRACT.** In modern conditions, the introduction of enterprise monitoring and control systems in Uzbekistan is considered one of the key factors for the effective economic growth of the country. The present study is devoted to a comprehensive analysis of agricultural enterprises, as well as to the examination of

the role and significance of monitoring in their development and in ensuring sustainable growth.

**Key words:** agriculture, digital technologies, monitoring, farming enterprise, digital economy, innovative technologies, information systems, databases, automated management, agro-inspection, sustainable development, yield forecasting, agribusiness.

## **KIRISH**

Qishloq xo‘jaligi har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, sanoat tarmoqlarini xom ashyo bilan ta‘minlash, ishchi kuchini band qilish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Mazkur tarmoqning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda esa korxonalar faoliyatini tizimli monitoring qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, monitoring (inglizcha: monitoring) – biror jarayon yoki faoliyat ustidan muntazam va tizimli kuzatuv, holatni o‘rganish va nazorat qilish jarayonidir. U ma‘lumot to‘plash, baholash, tahlil qilish hamda qarorlar qabul qilish uchun xizmat qiladi[1].

Shuningdek, ilmiy-adabiy manbalarda bu atama quyidagicha izohlanadi:

“Monitoring – bu muayyan ob‘yekt, jarayon yoki faoliyat holatini muntazam ravishda kuzatish va baholab borish tizimi bo‘lib, natijalar asosida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi”[2].

Korxonalar monitoringi – bu ishlab chiqarish faoliyati, moliyaviy holat, texnik-texnologik daraja, resurslardan foydalanish samaradorligi, ekologik va mehnat sharoitlari kabi ko‘rsatkichlarni muntazam kuzatish va tahlil qilish orqali ularni nazorat qilish tizimidir. Monitoring jarayoni orqali qishloq xo‘jaligi korxonalarining faoliyati baholanadi, mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi[3].

## **ADABIYOTLAR TAHLILI**

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi faoliyatini rivojlantirishda korxonalar faoliyatini samarali monitoring qilish masalalari ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, iqtisodiy nazariya va menejmentga oid manbalarda korxonalar faoliyatini monitoring qilish ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishni ta‘minlash omili sifatida ko‘rsatiladi[4].

Qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘yicha olib borilgan izlanishlarda monitoring tizimlari nafaqat ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish, balki hosildorlikni prognoz qilish, resurs sarfini kamaytirish va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini raqamli tahlil qilish imkonini berishi qayd etilgan[5].

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham bu yo‘nalishda dastlabki ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish,

agroinspeksiya faoliyatini modernizatsiya qilish hamda avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etishning afzalliklari yoritilgan[6]. Ularning tadqiqotlarida axborot texnologiyalarini joriy etish natijasida qishloq xo‘jaligi korxonalarida shaffoflik, samaradorlik va resurslarni optimallashtirishga erishish mumkinligi ta’kidlanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada solishtirma taxlil, tizimli yondashuv, iqtisodiy taqqoslash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, qishloq xo‘jaligi korxonalarini monitoringi va nazorat tizimini avtomatlashtirishni baholash usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Monitoringning qishloq xo‘jaligi faoliyatiga integratsiyalashuvi soha rivojining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, ilmiy-texnik yutuqlarni joriy qilish hamda infratuzilmaviy muammolarni aniqlash va yechimini topishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jaligi subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun monitoring tizimini zamonaviy usullar asosida tashkil etish zaruratga aylanmoqda.

### 1-jadval

**Qishloq xo‘jaligi monitoringining asosiy yo‘nalishlari[8]**

Yo‘nalishlar	Monitoring predmeti	Maqsadi
<b>Moliyaviy monitoring</b>	Foyda, zarar, aktivlar, xarajatlar	Moliyaviy barqarorlikni aniqlash
<b>Ishlab chiqarish monitoringi</b>	Mahsulot hajmi, hosildorlik, texnika samaradorligi	Ishlab chiqarishni maqbullashtirish
<b>Ekologik monitoring</b>	Yer sifati, suv holati, pestitsidlar darajasi	Atrof-muhitga ta’sirni baholash
<b>Mehnat resurslar monitoringi</b>	Ishchi kuchi sifati, bandlik, mehnat sharoitlari	Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash
<b>Texnologik monitoring</b>	Yangi texnika, avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar	Innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlari

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, monitoring tizimi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish, balki korxonalar faoliyatining ijtimoiy va ekologik jihatlarini ham qamrab oladi. Masalan, sug‘oriladigan yerlarning degradatsiyasi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ekologik xavflar, ishchi kuchining mehnat sharoitlari – bularning barchasi monitoring orqali aniqlanadi va bartaraf etish strategiyalari ishlab chiqiladi.

Shuningdek, monitoring natijalari asosida davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan subsidiyalar, kreditlar va boshqa rag‘batlantiruvchi mexanizmlar samaradorligini baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa davlat siyosatini ilmiy asosda olib borish uchun zaruriy shartdir.

Korxonalar monitoringining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari va tendensiyalarini kuzatish;
- moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida barqarorlikni baholash;
- yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash;
- texnik-texnologik ta‘minot holatini tahlil qilish;
- mehnat resurslari salohiyatini o‘rganish;
- ekologik xavfsizlik holatini aniqlash;
- davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yordamlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish.

Monitoring asosida shakllanadigan statistik va tahliliy ma‘lumotlar qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari, investitsiya loyihalari, subsidiyalash tizimi va boshqa muhim mexanizmlarni asoslash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishida ishlab chiqaruvchi subyektlar – ya‘ni qishloq xo‘jaligi korxonalari muhim o‘rin tutadi. Ular bevosita oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholining bandligini oshirish, milliy iqtisodiyotda agrosanoat ulushini kengaytirish kabi strategik vazifalarni bajaradi.

O‘zbekistonda jami ro‘yhatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025-yil mart oyi davrida jami 725856 tadan iborat bo‘lib, ulardan 65885 ta korxonalar qishloq xo‘jaligi sohasi hissasiga to‘g‘ri kelmoqda (2-jadval). Bundan ko‘rishimiz mumkin qishloq xo‘jaligi korxonalari milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, ular nafaqat oziq-ovqat ta‘minotini, balki ijtimoiy barqarorlik va eksport salohiyatini ham belgilaydi. Ularning turlari, vazifalari va tizimdagi o‘rnini chuqur tahlil qilish – qishloq xo‘jaligi siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## 2-jadval

### Ro‘yhatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni (2021-2025 yy)[9]

T/r	RO‘YHATDAN O‘TGAN KORXONA VA TASHKILOTLAR	Ro‘yhatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni (yillar kesimida)				
		2021-y	2022-y	2023-y	2024-y	2025-y
1	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	44657	49546	57925	62796	65885
2	Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	2727	2930	3179	3371	3551
3	Ishlab chiqarish sanoati	84162	91577	100040	104614	107365
4	Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	499	503	545	694	818
5	Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya	1339	1386	1583	1710	1902

	tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish					
6	Qurilish	43173	45719	49173	53128	54223
7	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	140182	166105	194249	220265	234967
8	Tashish va saqlash	18211	19082	21688	24700	25818
9	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	32501	35429	39549	43584	47528
10	Axborot va aloqa	10188	11176	12906	15008	16668
11	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	3974	3511	3857	4223	4506
12	Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	14491	14829	15801	17111	18108
13	Professional, ilmiy va texnik faoliyat	16924	18512	20429	22836	25173
14	Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	13683	14110	16116	18333	20523
15	Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	12626	12984	13683	13713	13774
16	Ta'lim	30094	32810	35167	36873	38076
17	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	9427	10767	12037	13065	13921
18	San'at, ko'ngil ochish va dam olish	6304	6851	7611	8172	8455
19	Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	18375	19928	21936	24147	24595
	<b>Jami</b>	<b>503537</b>	<b>557755</b>	<b>627474</b>	<b>688343</b>	<b>725856</b>

O'zbekistonda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025-yil mart oyi davrida jami 424839 tadan iborat bo'lib, ulardan 30952 ta korxonalar qishloq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri kelmoqda (3-jadval). Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki hozirgi kunda juda ko'p korxonalar ish faoliyati faqat korxonalarini ro'yhatdan o'tkazish bilan cheklanayati. Ushbu korxonalar ish faoliyati bilan shug'ullanishi va faoliyat ko'rsatishi bilan shug'ullanadigan ularni monitoring qiladigan tashkilotlarning ish hajmi qanchalik katta ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### 3-jadval

#### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2021-2025 yy)[9]

T/R	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (yillar kesimida)				
		2021	2022	2023	2024	2025
1	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	41321	46501	53808	37772	30952
2	Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	2603	2820	3057	2439	2116
3	Ishlab chiqarish sanoati	79230	86566	93772	65426	52027
4	Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	477	478	518	518	528


5	Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	1229	1288	1458	1061	975
6	Qurilish	40950	43695	46971	34749	27408
7	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	132192	157129	182917	158065	137109
8	Tashish va saqlash	17301	18251	20666	17935	15778
9	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	30111	33104	36811	28364	26135
10	Axborot va aloqa	9517	10587	12204	10551	9777
11	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	3651	3279	3608	2776	2625
12	Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	13893	14236	15088	14637	14143
13	Professional, ilmiy va texnik faoliyat	15692	17333	19207	18019	17969
14	Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	12939	13469	15362	12659	11823
15	Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	12505	12852	13550	13485	13394
16	Ta'lim	29241	31756	34135	31185	30016
17	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	9145	10391	11597	10998	10753
18	San'at, ko'ngil ochish va dam olish	5921	6422	7093	5972	5134
19	Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	17278	18771	20548	18411	16177
	<b>Jami</b>	<b>475196</b>	<b>528928</b>	<b>592370</b>	<b>485022</b>	<b>424839</b>

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida turli xil qishloq xo'jaligi korxonalari barpo etilyapti va hozirgi kunda o'z faoliyatini olib bormoqda. Lekin faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarining aksariyatida ishlab chiqarish va bozor munosabatlariga moslashuvchanligi yuqori emas. Buning yorqin misoli sifatida 2025 yil qishloq xo'jaligi sohasida ro'yhatdan o'tgan 65885 ta korxonadan 47,98% yani 30952 tasi qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar hisobiga to'g'ri kelmoqda (1-rasm).

Buning asosiy sabablaridan biri qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati ustidan nazorat va monitoring qilish ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy muammolaridan biri – ularning ustidan nazorat va monitoring tizimlarining to'liq shakllanmaganligidir. Shuningdek, agrosanoat korxonalarini to'g'ri baholash va natijadorligini aniqlash tizimlari ham yetarli darajada rivojlanmagan. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligi korxonalari monitoringini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Buning uchun ma'lumotlarni to'plash,

tahlil qilish, baholash hamda nazorat mexanizmlarini yaratish va ular asosida tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish talab etiladi.



**1-rasm. 2021-2025 yillarda qishloq xo'jaligi sohasida ro'yhatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni ulushi[8]**

Hozirgi paytda qishloq xo'jaligi korxonalarini monitoring qilish tizimi rivojlanishning boshlang'ich bosqichida bo'lsa-da, mavjud tajribalar muammoni to'liq hal eta olmaydi. Ayniqsa, ushbu jarayonning ilmiy-uslubiy asoslari bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqilmagan va yetarlicha asoslanmagan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan xulosalardan kelib chiqib quyidagicha takliflarni ilgari surishimiz mumkin.

- Yagona raqamli monitoring tizimini yaratish – barcha qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini qamrab oluvchi onlayn platformani ishlab chiqish;
- Baholash mezonlarini ishlab chiqish – samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, ekologik ta'sir va mehnat resurslari kabi yo'nalishlarda aniq ko'rsatkichlar joriy etish;
- Sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarini qo'llash – korxonalardan yig'iladigan ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish va prognozlash imkoniyatini beruvchi tizimlarni tatbiq etish;
- Ilmiy-uslubiy asoslarni ishlab chiqish – monitoring tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish va xalqaro tajribani qo'llash;
- Mutaxassislarni tayyorlash – monitoring va nazoratni olib boradigan malakali kadrlar tayyorlash uchun maxsus o'quv dasturlarini joriy etish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5-jild, O‘zR FA Til va adabiyot instituti, "Sharq" nashriyoti, 2008-yil.
2. M.M. Jo‘rayev, "Iqtisodiy tahlil asoslari", Toshkent, 2019-y.
3. Karimov, S. (2021). Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 896 p.
5. FAO. Digital Agriculture: Farmers in the Driver’s Seat. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2021. – 54 p.
6. Ashurov A. Raqamli texnologiyalarning qishloq xo‘jaligi samaradorligiga ta’siri // E3S Web of Conferences. – 2023. – Vol. 460. – P. 2003–2009.
7. To‘laganov B. Qishloq xo‘jaligida raqamli transformatsiya jarayonlari // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali. – 2022. – №3(45). – B. 55–63.
8. Muallif ishlanmasi.
9. <https://stat.uz/> - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy web sayti